XALQ DEPUTATLARI NAVOIY SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-16-115-5-79-K/25 Navoiy shahar

Navoiy shahrining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Navoiy viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-22-165-5-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq hamda Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 01-12/20-01-38/3537-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Navoiy shahar

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Navoiy viloyat Kengashining 2025-yil dekabr oyidagi qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Navoiy shahar budjetining 2026-yilgi daromadlari **178 362 736,0 ming.so‘m** va xarajatlari esa **178 362 736,0 ming.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi shuningdek Navoiy shahar budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining eng kam miqdori **1 711 283,0 ming.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. 2026-yil uchun Navoiy shahrini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkich prognoz mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2026-yil uchun shahar mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

2026-yil uchun shahar budjetidan budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq;

2026-yil uchun shahar budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha shahar mahalliy budjeti bilan shahar budjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Navoiy shahar bo‘yicha G‘aznachilik xizmati bo‘limi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

5. 2026-yil uchun shahar mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2026-yil uchun shaharning shahar budjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **1 711 283,0 ming.so‘m** hamda shahar budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

7. Shahar budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **2 026 312,0 ming.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

8. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari O‘.Haqberdiyev, shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (N.Tuxtayev), shahar soliq inspektsiyasi (F.Ergashev) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtisda va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

9. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larini samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari shahar Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

10. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

11. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Navoiy shahar Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (A.Mirzayev) hamda shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari O‘.Haqberdiyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **ERGASHEV DILMUROD BEKMURADOVICH**

Xalq deputatlari Navoiy shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-115-5-79-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Navoiy shahrining 2026-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz koʻrsatkichlari

№	Koʻrsatkichlar	2026-yil uchun prognoz	Moʻljal	
			2027-yil	2028-yil
1	Yalpi hududiy mahsulot, trln.soʻmda	x	x	x
2	Yalpi hududiy mahsulotning oʻsish surʼati, foizda	x	x	x
3	Sanoat mahsulotlarining oʻsish surʼati, foizda	5,5	6,3	6,1
4	Qishloq, Oʻrmon va baliq xoʻjaliklarida ishlab chiqarishning oʻsish surʼati, foizda	3,3	3,5	3,5
5	Xizmatlar koʻrsatishning oʻsish surʼati, foizda	18,5	18,9	19,0

Xalq deputatlari Navoiy shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-115-5-79-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Navoiy shaharning shahar mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yildagi asosiy prognoz koʻrsatkichlari

ming. so`m

T/P	Daromad turlari	Jami
JAMI		**178 362 736**
1	Qoʻshilgan qiymat soliq	17 511 496
2	Aylanmadan olinadigan soliq	27 993 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliq	6 179 540
4	Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijara berishdan	5 800 000
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	36 331 000
6	Jismoniy shaxslar mol-mulkini solinadigan soliq	23 780 000
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	36 896 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	10 347 000
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	12 886 700
10	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	800 000

Xalq deputatlari Navoiy shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-115-5-79-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun Navoiy shaharning shahar budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**178 362 736**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**178 362 736**
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Shahar mahalliy budjetlariga transfertlar	
1	**Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi** (maktablar)	**7 802 570**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 802 570
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi** (MTT)	**30 202 068**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	30 202 068
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

3	**Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi**	**7 361 887**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 361 887
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4	**Barkamol avlod bolalar maktabi**	**1 396 627**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 396 627
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Madaniyat bo‘limi**	**1 367 025**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 367 025
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Musiqa maktablar**	**7 680 429**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 680 429
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Sportni rivojlantirish bo`limi**	**14 402 245**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	14 402 245
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

8	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo`limi**	**2 074 245**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 074 245
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo`yilmalar	
9	**Kambag‘alikni qisqartirish va bandligiga ko‘maklashish markazi**	**1 888 397**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 888 397
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Iqtisodyot va moliya bo‘limi**	**2 573 003**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 573 003
	shundan: saqlash xarajatlariga	
11	**Shahar obodonlashtirish boshqarmasi xarajatlari**	**63 691 288**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	63 691 288
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Hokimlik**	**14 052 571**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	
	Hokimlikni saqlash xarajatlari	6 338 388

	Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	46 717
	Hokimliklarning zaxira jamg‘armalari	2 026 312
	Hokim yordamchilarini saqlash xarajati	4 043 154
	“Mahalla byudjeti” jamg‘armasi mablag’lari	1 598 000
13	**Ijtimoiy moslashuv markazi**	**155 617**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	155 617
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Oila va xotin qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi**	**1 779 324**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 779 324
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	**Yoshlar ishlari agentligi**	**4 568 396**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 568 396
	Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**17 367 044**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**17 367 044**
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	15 945 644
	Mening maktabim	1 421 400

Xalq deputatlari Navoiy shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-115-5-79-K/25 -son qaroriga
4-ilova

2026-yilda umumdavlat soliqlaridan shahar mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/r	Hudud nomi	Qo‘shilgan qiymat soliq	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliq	Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijara berishdan	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslar mol-mulkini solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari
1	Navoiy shahar	34	100	2	100	100	100	100	100	100	100

Xalq deputatlari Navoiy shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-115-5-79-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Shahar mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi

ming so`mda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
1	Navoiy shahar	178 362 736	178 362 736

Xalq deputatlari Navoiy shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-115-5-79-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Shahar mahalliy budjetining 2026-yilda shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

T/r	**Hudud nomi**	**Miqdor** (*ming so‘mda)*
1	Navoiy shahar	**1 711 283,0**